



## XALQ DEPUTATLARI FARG‘ONA TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

2025-yil 1-iyul

VII-9-65-11-163-K/25

Farg‘ona tumani

### **O‘EP partiya guruhi ish rejasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni tashkil etish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonining Farg‘ona tumanidagi ijrosi haqida**

Farg‘ona tumanida chiqindi bilan bog‘liq ishlarni amalga oshirish borasida bir qancha ishlar olib borildi. O‘zbekiston Respublikasi “Chiqindilar to‘g‘risida”gi qonunga ko‘ra, tumanda olib borilgan nazorat tadbirlari davomida tumanning 72 nafar fuqarolarga nisbatan 27 mln 562 ming 500 so‘m miqdorida ma’muriy jarimalar rasmiylashtirildi.

Chiqindi bilan bog‘liq bo‘lgan 15 ta murojaatlar o‘rganib chiqildi. Bunda asosiy chiqindilarni vaqtida tashib ketilishi yuzasidan kelib chiqqan muammolar hisoblanadi. Aholiga maishiy chiqindilarni tashib ketish xizmatini ko‘rsatuvchi “Maxsus Garant Avto servis” MChJ faoliyat olib boradi. Jamiyat tomonidan tumanning barcha aholi va korxona tashkilotlarigi xizmat ko‘rsatadi.

Bugungi kunda tuman aholisi tomonidan tumanning chekka hududlarida noqonuniy tarzda tashkil etilgan 45 dona chiqindi tashlash joylari bartaraf etildi. Ushbu holatda tegishli mas’ullarga nisbatan qonunda belgilangan jazo choralar qo’llanildi.

Farg‘ona tumani Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi tomonidan belgilanmagan joylarga chiqindilarni tashlamaslik, chiqindilarga nisbatan bo‘layotgan munosabatlar yuzasidan keng ko‘lamli targ‘ibot ishlari olib borilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti topshiriqlari ijrosini ta’minalash maqsadida, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi ilg‘or tajribaga ega xorijiy kompaniyalar bilan muzokaralar olib borib, “China Everbright Internotional Ltd.” kompaniyasi tomonidan Farg‘ona viloyati chiqindi poligoni hamda unga tutash hududda jami **15 hektar** yer maydonda chiqindilarni utilizatsiya qilish orqali muqobil elektr energiya olish maqsadida zavod qurish taklifi kelib tushgan.

Farg‘ona viloyat Farg‘ona tuman Oqbilol MFY hududidan 15 hektar yer maydonini Ekologiya vazirligi huzuridagi Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligiga doimiy foydalanish huquqi bilan belgilangan tartibda ajratilishi belgilab berilgan bo‘lib, yuqoridagilardan kelib chiqib, “China Everbright Internotional Ltd.” Kompaniyasi mutaxassislari bilan birgalikda hududlarda joyiga chiqgan holda chiqindilarni yoqish va kompost qilish zavod qurilishi uchun talab qilingan, (*Yer osti suvi zaxirasi mavjud, ishlab chiqilgan elektr energiyasini axoliga*

*uzatish podstansiyasiga yaqin va axoli yashash punktlarida kamida 300 metr uzoqlikda) shartlariga mos keladigan Farg‘ona tumani Oqobilol MFY Davlat zahira yerlaridan 15 hektar yer maydoni tanlanib “China Everbright Internotional Ltd.” kompaniyasi vakillariga o‘zaro kelishish uchun taqdim etilgan.*

Bugungi kunda “China Everbright Internotional Ltd.” Kompaniyasi mutaxassislari Farg‘ona viloyatiga tashrif buyurgan. Xitoy kompaniyasi vakillari bilan hamkorlikda quyidagi ishlar amalga oshirildi:

Xitoy kompaniyasi mutaxassisi O‘zbekiston bo‘yicha ishonchli vakiliga O‘zbekistonda kompanyani ro‘yxatdan o‘tkazitsh uchun JShShR ochildi.

O‘zbekistondan xorijiy kompanyani davlat ro‘yxatidan o‘tkazish uchun Farg‘ona tuman davlat xizmatlari markaziga ariza kiritilib xorijiy kopaniyanisi O‘zbekistondagi nomi “China Everbright Internotional Ferghana Ltd.” Kompaniyasi deb nomlandi.

Bugungi kunda “China Everbright Internotional Ferghana Ltd.” Kompaniyasi guvoxnomasi hamda nizomlari ishlab chiqilmoqda.

Tanlangan yer maydoni qarori chiqarish uchun kodastr boshqarmasi bilan 2025-yil 23 aprel kuni № 4/30-sonli shartnama imzolanib, tegishli mag‘blag‘lar o‘tkazish uchun Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligiga taqdim qilingan. Agentlik tomonidan tuzilgan shartnomalar respublika g‘aznachilik bo‘limiga mablag‘lar o‘tkazilish uchun kiritilgan.

Tanlangan yer maydonida elektr va suv ta’mnoti bilan ta’minlash uchun hamda texnik shartlar ishlab chiqish uchun Xududiy elektr tarmoqlari hamda Suv ta’mnoti korxonalariga tanlangan yer maydoni ko‘rsatildi.

Kadastr agentligi bilan tuzilgan shartnomalar chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi tomonidan tasdiqlanib respublika g‘aznachilik bo‘limiga kiritildi.

Ushbu tuzilgan shartnomalar elektron platformaga kiritildi. Bugungi kunda shartnama bo‘yicha mablag‘larni chiqarish uchun muxakama jarayonlari olib borilmoqda.

Viloyat hokimining investitsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari hamda xitoylik investorlar bilan muzokaralar o‘tkazildi.

Muzokaralar yakuniga ko‘ra xitoylik investorlarning qurilish oldi xujjatlari yakuniga yetgunga qadar ajratilgan yer maydoni atrofini o‘rash hamda ishchi hodimlar uchun alohida joylar tashkil qilishga ruxsat berildi.

UZGASHKLITI tomonidan ajratilgan yer maydoni bo‘yicha qurilish oldi xujjatlar to‘liq rasmilashtirildi.

Farg‘ona viloyat Qurilish inspeksiyasi rahbariyati bilan uchrashuv o‘tkazilib, qurilish ishlari boshlangunga qadar ajratilgan yer maydoni atrofini o‘rash va ishchi hodimlar uchun alohida joylar tashkil qilish bo‘yicha tegishli ko‘rsatmalar berildi.

Tanlangan 15 hektar yer maydoni bo‘yicha Respublika Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi nomiga Farg‘ona viloyat hokim qarori chiqarildi.

O‘EP partiya guruhi ish rejasiga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Chiqindilar bilan bog‘liq ishlarni tashkil etish tizimini isloh qilish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmonining Farg‘ona tumanidagi ijrosi haqidagi tuman ekologiya, atrof muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi bo‘limi bosh mutaxassisining Xalq deputatlari tuman Kengashi sessiyasidagi hisoboti bo‘yicha tuman

Kengashi deputatlarining fikr va mulohazalarini inobatga olib, Xalq deputatlari tuman Kengashi

## **Q A R O R Q I L A D I:**

**1.** O'EP partiya guruhi ish rejasiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Chiqindilar bilan bog'liq ishlarni tashkil etish tizimini isloh qilish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmonining Farg'ona tumanidagi ijrosi haqidagi Tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi bosh mutahassisini R.Sobirovning hisoboti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

**2.** Tuman hokimi o'rribosari (M.Qodirxonov), tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi (U.Toshbekov) hamda tegishli xizmat ko'rsatuvchi korxona bilan birgalikda joriy yilda:

aholini sanitar tozalash xizmatlari bilan qamrov darajasini 100 foizga yetkazish;  
maishiy chiqindilarni qayta ishlash korxonasini tashkil etish bo'yicha tegishli choralar ko'rish vazifalari yuklatilsin.

**3.** Tuman hokimi o'rribosari (M.Qodirxonov), tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi (U.Toshbekov) hamda tegishli korxonalar bilan birgalikda:

sanoat korxonalarida, jumladan pishgan g'isht ishlab chiqarish zavodlari hamda issiqxonalarda chang-gaz tozalash uskunalarini (siklon, filtr)ni o'rnatish bo'yicha tegishli choralar ko'rish;

tuman hududida aniqlangan noqonuniy chiqindixonalarni bartaraf etish choralarini ko'rib, ulardagi mavjud chiqindilarni maxsus chiqindi poligoniga joylashtirish;

chiqindilardan tozalangan noqonuniy chiqindixonalar yoniga "Chiqindilar tashlanmasin" hamda jarimalari keltirilgan belgilar o'rnatish;

noqonuniy chiqindilarni maxsus chiqindi poligonlariga joylashtirish ishlarini sifatli va samarali o'tkazilishini tashkil etish choralarini ko'rsin.

**4.** Tuman hokimi o'rribosari (M.Qodirxonov), tuman Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi bo'limi (U.Toshbekov) hamda barcha tashkilot, korxona va muassasalar rahbarlariga:

tumanda ekilgan daraxtlarni parvarish qilish, sug'orish ishlarini amalga oshirish, yangi ekilgan ko'chatlarni qurib qolishini oldini olish bo'yicha barcha zaruriy choralarini;

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 2 oktyabrdagi "Maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish sohasidagi ishlar samaradorligini yanada oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 787-tonli qarori ijrosini ta'minlash, shuningdek mazkur qaror bilan tasdiqlangan "Sanitariya jihatidan tozalash infratuzilmasi ob'ektlarini joylashtirish va ulardan foydalanish hamda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish qoidalari" talablari asosida korxona hududida chiqindi urnalarini tashkil etish choralarini ko'rsinlar.

**5.** Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish tuman hokimi o'rribosari (M.Qodirxonov) hamda Xalq deputatlari tuman Kengashining Agrar, qurilish, kommunal sohalar, ekologiya, sanoat va tarsport masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (A.Xamdamov) va Korrupsiyaga qarshi kurashish, davlat organlarida ochiqlikni ta'minlash va huquqiy masalalar bo'yicha doimiy komissiya (Q.Makarov)lar zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



ABDURAXMONOV  
ILXOMJON  
AKBARALIYEVICH